

YAHYO FAYOZ

BAXTIMIZNING  
ZAR TUMORLARI



KITOBIM



BIRINCHIK

SHE'RLAR

2  
4

**Kitob shu erda ko'satilgan muddatdan  
kechiktirilagan holda topshirilishi shart**

**ilgarigi berilmalar miqdori** \_\_\_\_\_


--	--

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI  
"IJOD" JAMOAT FONDI

YAHYOXON FAYOZ

# BAXTIMIZNING ZAR TUMORLARI

*She'rlar*



*Sen degunda bo'sha  
kel, o'ynatilik  
0502 50502 50502  
"Adabiyot", 2020*

TOSHKENT  
"ADABIYOT"  
2020

Nashr uchun mas'ul:

**Sirojiddin SAYYID,**

*O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi*

Mas'ul muharrir:

**Rustam Musurmon**

Yahyoxonning she'rlarida, boshqalardan farqli o'laroq, ona yurt sog'inchi, bolaligi kechgan damlarni, yaqin kishilari qo'msash kechinmalari yetakchilik qiladi. Hatto dala-dashtda mung'ayib turgan cho'ponning g'aribgina kulbasining qadr-qimmati ham egasi uchun qasrnikidan kam emasligini ilg'ash, his etish uchun kishida o'tkir qalb ko'zi, hassos va mehr-muhabbatga to'la ko'ngil bo'lishi lozim. Ota-onas, qarindosh-urug'larni-yu kindik qoni tomsgan go'-shalarni qalb qo'ri-yu qalami bilan ulug'lay-ulug'lay yosh shoirimizning o'zi ham Boysun tog'laridek ijodiy ulug'likka bo'y cho'zayotganidan mutaassir bo'ldik. Sizga-da ushbu ezgulikni ilindik, aziz kitobxon.

*Ushbu kitob 2018-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi  
o'tkazgan Respublika yosh ijodkorlarining  
Zomin seminarida nashrga tavsiya qilinib, "Ijod" jamoat  
fondi tomonidan moliyalashtirilgan.*

ISBN 978-9943-6472-8-2



© Y. Fayoz, 2020  
© "Adabiyot", 2020

## TONGGI MAK TUB

Yahyoning she'rlarini to'rt-besh yillardan buyon o'qib kelaman. Yozgan she'rlari munosib deb topilgani uchun u yosh ijodkorlarning an'anaviy "Zomin" respublika anjumanida qatnashgan. Shu yillar davomida adabiy muhitdan bahramand bo'lgani, o'qib-o'rgangani uchun avvalgidan ko'ra ancha o'sgan. "Chaqmoq chiqar bulutni yorib, Go'yo ko'kning qo'lida chirrog'i", "Hayot qirlariga narvonsan, Pog'onadan o'tayotgan men", "Ko'ngil kuymas oftobda aslo", "Osmonga ko'rkdir yulduzlar" kabi satrlari tongga intiq bo'lgan umid oqshomidagi shamdek miltillaydi. Bu oqshomda bitilgan qo'lyozmalar tongda kitobxonlar ko'ngliga maktub bo'lib yetib borishini istayman.

Umuman, har bir she'r sipoyi so'zlar va sillik qofiyalar yig'indisi emas, betakror kompozitsiyaga ega asar – so'zsan'ati namunasi bo'lishi kerak.

Qoraqalpoq shoiri Muhammad Xo'shonning bir she'rini o'qidim, lirik qahramon – boboning nabiraga murojaati bekinmachoq o'yini vositasiga qurilgan:

*Sen deganda bobongning yo'q to'yimi,  
Kel, o'ynaylik  
Bekinmachoq o'yinin.*

*"Avvalaman" so'zin ulgi etaman,  
Sen qolasan,  
Men yashirinib ketaman.*

*O'yin sharti qattiq, bilmas "obbo"ngni,  
Sen topib ol,  
Izlab o'rgan bobongni.*

*Izla meni yaqin yerdan, olisdan,  
Topolmasang,  
"Qaydasiz?!" deb tovushla.  
Kelishaylik, shunday mening talabim,  
Meni topsang,  
Meniki bu g'alabam.*

Demoqchimanki, she'r ana shunday obrazli bo'lsin, so'zning ko'chma ma'nolari kashf etilsin, "kosa tagida nimkosa" bo'lsin. Men Yahyoga ijodiy muvaffaqiyat tilayman.

**Rustam MUSURMON,**

*Qoraqalpog'iston xalq shoiri.*

ISBN 978-9943-6472-8-2

sisas drubligan:



Sen qolning o'sebi  
Keyfiyati  
© "Azbakot", 2020

## ONA DIYORIM

Bu Vatanning ildizlari  
 Hikmatlardan iborat.  
 Hikmatlari ulkan kitob,  
 Kitoblari – imorat.

Har qadamda orzu gullar,  
 Ey, tuprog'i jo'mardim.  
 O'zingdirsan ilk bahorim,  
 O'zing dilda ardog'im.

Ziyo istab zulm chekkan  
 Qodiriy ham Cho'lponim.  
 Osmono'par cho'qqilarni  
 Uyg'otgansan, cho'ponim.

Diyorimda Inson aziz,  
 Shunday bo'lgan azaldan.  
 O'zbek elim mehnatidan  
 Mo'jizalar yaralgan.

Qulog'imda elas-elas  
 Onam aytgan alla sasi.  
 Balki, shundan qalbda mangu,  
 Yurtga bo'lgan mehr darsi.  
 Adabiyot zahmatin  
 Dildan tuyib o'tarman.

Ufqqa tutash tog'laringday  
Yuragimda g'ujurim qat.  
O'zingdirsan ko'ngil ka'bam,  
O'zing mangu muhabbat.



Zivo iztibz shuru cheskezin  
Razil bo'sin. O'smonon bo'sin  
Kashf etilsin. "Qizimkosa" bo'sin.  
Men Yahyoga yodiy muvaffaqiyat tilayman.

Diborlumdas tuzon sis  
Rustam SURMON  
Shundav od jysm xaxshish  
O'spek g'ini mosuristikdu  
Mo'jisezar Azeriszar

O'nog'imiads eses-ees  
O'saw saltegn sills sari  
Bashiq, shundav dastpas manbar  
Yurtiga po'jasa u mehir darsizi.

## ADIBLAR XIYOBONI

Qo'lda qalam, dilda soz,  
Ayni ijod zamoni.  
Shoirlar topdi e'zoz,  
O'tdi yaxshi-yomoni.  
Ma'rifatning zaboni –  
Adiblar xiyoboni.

Abdulla bobom bunda,  
Tilar bizga zafarlar.  
"Bolam ijod qil" deydi,  
Bo'lmas endi xatarlar.  
Ezgulikning karvoni –  
Adiblar xiyoboni.

Hurriyat, deb o'tganlar  
Yodi har dam yoddadir.  
Taqdirning chig'irig'i  
Ko'kda turgan zotdadir.  
Qodiriyning armoni –  
Adiblar xiyoboni.

Erkin Vohid poyiga  
Gullar qo'yib o'tarman.  
Adabiyot zahmatin  
Dildan tuyib o'tarman.

Xotiralar ayvoni –  
Adiblar xiyoboni.

Yuragimdan to'kilgan  
Hayratlarim she'r bo'ldi.  
Boqib ustozlarimga  
Kichik jussam sher bo'ldi.  
Buyuklarning narvoni –  
Adiblar xiyoboni.

Adiblar xiyoboni.  
Adiblar xiyoboni.  
Adiblar xiyoboni.  
Adiblar xiyoboni.  
Adiblar xiyoboni.  
Adiblar xiyoboni.  
Adiblar xiyoboni.  
Adiblar xiyoboni.  
Adiblar xiyoboni.  
Adiblar xiyoboni.

Hurjiasf dep o'gasndan  
Yoldi par qish boyqasdi  
Tsadqilning chig'rig'i  
Ko'kda mirlagan so'rdasdi  
Qodiriyating siromoni –  
Adiblar xiyoboni.


Ejikin Vorig bogaiga  
Gurtsiz do'lip o'talwari  
Aqspilot xaspumsatu  
Didbas turid o'girishni

## YOMG'IR

Samo uzra bulutlar chopar,  
Gumburlaydi samoviy shotir.  
Bu bahoriy ajib tarovat,  
Mayin-mayin yog'adi yomg'ir.

Shitirlaydi daraxt yaprog'i,  
Tomchilar-la o'pishgan chog'i.  
Chaqmoq chaqar bulutni yorib,  
Go'yo ko'kning qo'lda chirog'i.

Yomg'ir yog'ar adirlar uzra  
Maysalarning silab yuzidan.  
Kulib qolar borliq tabiat  
Tomchilarning shirin nozidan.



## BOYSUN

Boysun!

Bobomning qiyshaygan dala shiyponi,  
Momomning armoni ko'milgan tuproq.  
Qor, yomg'ir yog'sa-da pirpirab, ammo  
O'chmagan yo'llarim yoritgan chiroq.

Otamning bag'riday kengliklar, yana  
Onamning' o'rnidida mo'tabar ona.  
Azim chinorlaring sog'inib keldim,  
Sog'inchim varaqqa to'kkanman, mana!

Boysun!

Akamning ko'ngliday musaffo osmon,  
Ukamning mehriday tugamas daryo.  
Saraton eritmagan qorlaring ko'rakam,  
Do'ppining to'rt yarim oyidir go'yo.

Hech kimga aytmagan sirlarim senda,  
Bolalik yashringan qirlarim senda,  
Ilk sevgim bitmagan dil daftarimda  
Va qancha sevilgan dillarim senda.

Boysun!

Toabad ko'ksimda qadrli diyor,  
Xarsangtoshlaringday sog'inch zalvori.  
Bir shoir o'g'lingman, qabul et, ona,  
Shudir muhabbatim, ko'ngil izhorim.  
Boysun...

\* \* \*

Ilhom berar qishloqning hatto  
 Xarsangtoshga qo'ngan g'ubori.  
 Ko'nglim osmon, g'ururim tog'dir,  
 Daryo bo'lar tog'larning qori.

Shahar go'zal, shahar xushqomat,  
 Bu haqiqat, etmayman inkor.  
 Ammo bizda boshqacha nasim,  
 Tonglarida gul ifori bor.

Qumg'onlardan choy ichgan cho'pon  
 Adirlarda dunyoni ko'rghan.  
 Men olislab ketgan mahallar  
 Tushlarimga keng yaylov kirgan.

Bobodehqon marddir, u tanti,  
 Qo'lda ketmon, tolsa asodir.  
 Duo bersa pirlar, eshonlar,  
 Polvonlari kurashga hozir.

Ey, ona yurt, ey, ona tuproq,  
 Senga har dam qilaman havas.  
 Men madhingni yozaman bot-bot,  
 Baxtimga sen omon bo'lsang, bas.

## BOLALIK

Ufq ortiga bekingan quyosh,  
Qaytib chiqmas, endi u o'zga.  
Balki, olis ko'kdagi yulduz  
Yalt-yalt etib ko'rinar ko'zga.

Bolalik!

Bu – hayot tongidir,  
O'z domiga tortdimi yo tun?  
Qaylardasan, ko'zlarim giryon?  
Men telbaning yurak-bag'ri xun.

Bildim!

Endi qaytib kelmasliging rost,  
Olib ketdi o'sha shamollar.  
Yo'q! Qaytib kelasan, balki,  
Sursam shirin-shirin xayollar.

Boysun...  
Bir shoir o'g'lingman, qabul et, ona,  
Shudir muhabbatim, ko'ngil izhorim.  
Boysun...

## POG'ONA

O'lislarga tikildim o'lis  
O'tmishimni ko'zdan kechirdim.

Xayollarni g'amlardan xolis  
Bolalikka tomon uchirdim.

Qanday shirin damlar edi, eh!

Tuproq kechib chopganlarim rost.

Tunlar shirin xayollarimda

Yulduz quchib yotganlarim rost.

Bolalik!

Sen o'lislab ketgan karvonsan,

Nortuyada ketayotgan men.

Hayot qirlariga narvonsan,

Pog'onadan o'tayotgan men.

Pog'onadan o'tayotgan men!

## KECHIRGIN, ONA

Shovqinli shahardan bezdim, onajon,  
O'ziga chorlaydi qishloq shamoli.  
Sog'inding o'g'lingni, sezdim, onajon,  
Nelarga band bo'ldi mening xayolim?  
Kechirgin, onajon, kechirgin meni.

Sabr-u toqat bilan yuraging to'lib,  
Umidga o'raysan sevinchlaringni.  
Men esa notavon, beparvo bo'lib,  
Kuttirdim orttirib sog'inchlaringni,  
Kechirgin, onajon, kechirgin meni.

Bugun ham qo'limga dasta gul olib,  
Sevganim yoniga otlandim yana.  
Mehribon, mushtipar, rahmdil qolib,  
O'tkinchi tuyg'uni yodladim, mana.  
Kechirgin, onajon, kechirgin meni.

Biroz kech bo'lsa-da kirdi-ku aqlim,  
Onajon, yoningga chopib boryapman.  
Dunyoda yagonam, poyi jannatim,  
Ko'zingda sog'inchli namlar ko'ryapman.  
Kechirgin, onajon, kechirgin meni.

Boshimni silading yonimga kelib,  
Baxtiyor hislarga ko'mib o'zingni.

Sen uchun ne qildim, ayt, o'g'il bo'lib?!  
 Ko'zimga surayin bosgan izingni,  
 Kechirgin, onajon, kechirgin meni.

Armon zanib dala'ib  


Yurak-yuradigan, betgan

Sog'inch, soz, nisbat, burcha

Baxhanlar misal, qizish ketean

Po'linigini o'bsa, lamusel isterassi


Bahorlar ketani - azally ko'kla'm

Ko'kersin, qabringiz, nara, qulqo'

Nobon ko'ngil o'sti, lom'on keteli qabid

Men hayaskor shoir, shaxsiy bo'sa

Po'linigini o'bsa, lamusel isterassi



Zulmeli turings zo, jyllimiga chiroq, imisis  
 Menjilimiga jecip du'lmasaby, pulog, imisis  
 Darysizimda, shishrimaga ogoqimisis  
 Po'linigini o'bsa, lamusel isterassi.

## JANNAT ISTASAM

Onajonim, siz o'zingiz davlatim,  
Mayligami sizni quchib yig'lasam?  
Ta'zim qilay yetti bukib savlatim,  
Poyingizni o'pay, jannat istasam.

Kechirgin, onajon, kechirgin meni.

Dardga to'la, g'amga to'la ko'zingiz,  
Ajini bor, ammo nurli yuzingiz,  
Topolmayman, gar yo'qotsam izingiz,  
Poyingizni o'pay, jannat istasam.

Parvonasiz sahargacha alla aytib,  
Madhingizni kuylay, ona, yalla aytib,  
Nodon ko'ngil orzu tomon ketdi daydib,  
Poyingizni o'pay, jannat istasam.

Meni o'ylab chekkaningiz zahmat, onam,  
Qulluq qilay to o'lguncha, rahmat, onam,  
Oyog'ingiz ostidadir jannat, onam,  
Poyingizni o'pay, jannat istasam.

Onajon, yonningga chopib boryapman.

Zulmat tunda yo'llarimga charog'imsiz,  
Mehringiz hech qurimaydi, bulog'imsiz,  
Dardlarimdan, sirlarimdan ogohimsiz,  
Poyingizni o'pay, jannat istasam.

Boshimni silading yonimga kelib,  
Baxtiyor hislarga ko'mib o'zingni.

## OTA

Nurli chehrangizni sog'indim, ota!

Uyga suvratingiz ilib qo'yganman.

Hatto islaringiz qo'msab qolaman,

Eski chopingizingiz olib qo'yganman.

Armon zanjirlarin uzib bo'lmaydi,

Yurak-yuragimga tutashib ketgan.

Sog'inch, sog'inch ezar, buncha og'ir yuk,


Barxanlar misoli qalashib ketgan.

Bahorlar keladi – azaliy ko'klam,

Ko'karsin qabringiz uzra gul-lola.

Bu yorug' olamda yuragim kemtik,

Men havaskor shoir, dilxasta bola...



\* \* \*

Dil g'ashlanar, ko'zda yosh qalqir,  
Xotiralar qaytaverar bot.  
Xayollar ham goh olatasir,  
Bolalikni aylaganda yod.

Sado kelar olis-olisdan,  
Tuproq ko'cha kezgan senmiding?!  
Tong saharlab saxiy polizdan  
Hidlab qovun uzgan senmiding?

Qo'lda bolta, belimda arqon,  
Yelkam yag'ir qilgan o'tinlar.  
To kechgacha orqalab samon,  
Shundan zavqli edi u kunlar.

Qo'shni bog'dan tosholma uzib,  
Toshdevordan oshganim esda.  
Araz-araz va yarash-yarash,  
Yoshlikdagi do'st "g'anim" esda.

Ajib edi, xo'p ajib edi,  
Beboshlikning qaysar yuzi bor.  
Tosh ko'chaning toshlari muhr  
Oyoqlardan ketmas izi bor.

Xayol bir dam bermaydi tinchlik,  
Tushlarimda bo'laman ozod.  
Xasta ko'nglim, voh, tilik-tilik,  
Bolalikni aylaganda yod.

## CHO'PONNING UYI

Bir tomon kenglik, bir tomon so'qmoq,

Tog'-u toshlar-u o'tloqlar bunda.

Barcha hasad-u yolg'ondan yiroq,

Mung'ayibgina turar bir kulba –

Cho'ponning uyi...

Eskirgan yog'och eshik namiqqan,

Pirpirar shiftda ilingan chiroq.

Tun bo'yi shamol o'ynoqlab chiqqan,

Tutar habash qumg'on va g'arib o'choq –

Cho'ponning uyi...

Ilk quyosh o'sha kulbaga boqar,

Yaylov ko'rк ochib to'laydi o'lpon.

Olisdan qo'ylar ma'raydi cho'zib,

Tunda mol boqib qaytadi cho'pon

O'sha qasrga – g'arib kulbaga...

**BILMABMAN**

Sevib qolmoq, aslida, qiynoq ekan, bilmabman,  
Parchagina yurakni o'ymoq ekan, bilmabman.

Men jondan sevib qoldim, u ham meni sevarmi?  
Uzun-uzun tunlari so'roq ekan, bilmabman.

Bo'lib butun dil yarim, ko'zdan uyqu qocharkan,  
O'tli-o'tli sog'inch-u firoq ekan, bilmabman.

Chindan oshiq mardumga begonamas bu dardlar,  
Shundan huzur-halovat yiroq ekan, bilmabman.

20 Jondan o'tar gohida go'zallarning nozlari,  
Ba'zan shirin jonidingdan to'ymoq ekan, bilmabman.

Jism-u jonim kuydirib, bag'rim kabob aylagan,  
O't-olovdan bir ko'ylak kiymoq ekan, bilmabman.

Chidaganga chiqargan, buni sevgi der ekan,  
Har qadamda ming sinov, so'qmoq ekan,  
bilmabman.

Xayol bir dam bermaydi tinchlik,  
Tushlarimda bo'laman ozod.  
Xasta ko'nglim, voh, tilik-tilik,  
Bolalikni aylaganda yod.

## BEKOR-DA

Sevdim desang tilingda, dil yonmasa, bekor-da,  
Go'zal aytgan so'zingga ishonmasa, bekor-da.

Sevdim degan so'zingdan gullab ketsa chamanlar,  
Lekin bir qiz ko'ngliga o't solmasa, bekor-da.

Nigohingdan o't chaqnab, boqishingga hamma lol,  
U ham seni ko'rganda uyalmasa, bekor-da.

Uzun tunlar bedorsan, xayollaring parishon,  
Har bir chekkan ohlaring kuy bo'lmasa, bekor-da.

Bir kun sevib qolar u garchi sendan kuchliroq,  
Ikki dil ham sevsayu, to'y bo'lmasa, bekor-da.

Shoirmen deb, Yahyoxon, qalam olsang qo'lingga,  
She'r yozmoqqa dard bilan o'y bo'lmasa, bekor-da.

## SHIRIN TUYG'U

Muhabbat qanday tuyg'u,

Buni sevgan biladi.

Gohi shodlik, goh qayg'u,

Yo ustingdan kuladi.

Kimdir deydi Majnunman,

Yana kimdir devona.

Kimdir jondek sevaman,

Deya bo'lur parvona.

Kimning qanday taqdiri,

Tole kular qaytmasang.

Qiz bola nozik dili,

Qaydan bilsin, aytmasang.

Sevgi yo'qdir kim uchun,

Balki, shu g'am yaxshidir.

Rostin aytsam, men uchun

Sevgi hayot naqshidir.

Har qadimda ming sinov, so'qmoq ekan,  
bilmabman.

## SOG'INIB YASHAYMAN

Shu tuproqda kindik qonim to'kilgan,  
Olis ketsam, eh, og'rinib yashayman.  
Fayoz bobom, otam, onam tug'ilgan  
Qishlog'imni men sog'inib yashayman.

Menga aziz to'zg'igan har xasi ham,  
Munglimi, sho'x mullato'rg'ay sasi ham.  
Bag'rin ochib go'yo deydi kel, bolam,  
Qishlog'imni men sog'inib yashayman.

Olovlardaga qoraygan huv o'choqlar,  
Tandir nonin yesam, ketgay charchoqlar.  
Unut bo'lmas go'daklig-u sho'x chog'lar,  
Qishlog'imni men sog'inib yashayman.

Munchog'imsan, ham ko'ksimda tumorim,  
Madhing yozib shoyad ketsa xumorim,  
Ona tuproq, ey sajdagoh diyorim,  
Qishlog'imni men sog'inib yashayman.

## QISHLOG'IM

Umrim bahori, go'zal damlarim,  
Chanqog'im qondirgan o'sha bulog'im.  
Tinch qo'ymas dilimda bisyor g'amalarim,  
Sog'indim, qaytaman senga, qishlog'im.

Musofir yurtlarda bu jonim halak,  
Tong-sahar esgan yel mehringdan darak,  
Onajon, sog'indim misoli go'dak,  
Sog'indim, qaytaman senga, qishlog'im.

'Hayotning yo'llari bir baland, bir past,  
Gohida yelkamga toshday botdi xas,  
Kel deya quchog'ing ochganlaring rost,  
Sog'indim, qaytaman senga, qishlog'im.

Esladim yig'lasam, esladim kulsam,  
Qaniydi bir yomon o'g'ling bo'lolsam,  
Roziman, poyingga bosh urib o'lsam,  
Sog'indim, qaytaman senga, qishlog'im.

Qaytaman ortimga, yelday yelaman,  
Tuprog'ing o'pib zor yig'lab kelaman,  
Qabul et, Yahyoxon Fayoz bo'laman,  
Sog'indim, qaytaman senga, qishlog'im.

\*\*\*

N Tor ko'ksimning dil lavhiga

S Aziz isming o'yib yozdim.

Q Menga orzu visolingni,

S She'rlarimda suyib yozdim.

Y So'nmas ishqim o'zinggadir,

Q Go'zallardan qiyib yozdim.

G O'ylaganda jamolingni

D Har lahzadan kuyib yozdim.

N Kechib ho-yu havaslardan,

Y Har shubhadan tiyib yozdim.

S Yaratganim, sen go'zalsan,

O Gumonlarni qiyib yozdim.

S Va'dangga hech xilofing yo'q,

S Sajdaga bosh qo'yib yozdim.

O Jannatlarda jamolingni

O Ko'rayin, deb kuyib yozdim.

## BOLALIKNI ESLAB

Ketdi yoshlik, ketdi bolalik,  
Endi dilga berolmayman erk.  
Ham beg'ubor qayg'ular ketdi,  
Sho'xliklarning eshiklari berk.

Shag'altoshlar tovon ezmaydi,  
Chaqirtikon og'ritmay qo'ygan.  
Ko'ngil nozik yig'loqi bola,  
G'iybat, mish-mish gaplardan to'ygan.

Yo'l bo'yida xazonrezgilar  
Shamollarga bandi barg nochor.  
Shu shamollar uchirgan umr  
Qaytmagaydir endi takror.

Chang'aroqdan termuladi oy,  
Bolalikda shunday ko'rghanman.  
O'zgarmagan hatto kattasoy,  
Men-chi, o'ttiz birga kirganman.

Qaytaman ortimga, yelday yelaman,  
Tuprog'ing o'pib zor yig'lab kelaman,  
Qabul et, Yahyoxon Fayoz bo'laman,  
Sog'indim, qaytaman senga, qishlog'im.

## SHE'RIYAT

Netay she'rim og'riqli bo'lsa,  
So'z ishqidan ko'nglimni g'ashlab.  
Qayga to'kay yuragim to'lsa,  
She'r yozishni qandayin tashlay?!

Yuragim ishq deya yig'lasa,  
Qanday ortga qaytaman, axir?!  
G'am-anduhlar bag'rim tig'lasa,  
Dardim kimga aytaman, axir?!

Netay, ruhim she'r yozgin desa,  
Yuragimga yetmaydi kuchim.  
She'r yozishni tashlagan kunim  
Olov bo'lib yonadi ichim.

She'riyat, bu – katta yo'l demak,  
Shundan yurmoq istadi dilim.  
Ortingga qayt, Yahyo, demanglar,  
Ortga qaytmoq shoirga o'lim.

## O'TKAN KUNLAR

Bekning hamon ko'nglidan ketmas,  
Har tong, har tun bag'rini xunlar.  
Baxt izlagan ko'ngillar shikast,  
O'tkan kunlar, oh, o'tli kunlar.

Kumushbibi gul edi, esiz,  
Zaynab esa yasholmas beksiz.  
Qodiriyni yig'latganmisiz,  
O'tkan kunlar, oh, o'tli kunlar?!

Otabekni qo'rqiitmagan dor,  
Ajalga tik boqqan qutidor,  
Homidga so'z kor qilmas zinhor,  
O'tkan kunlar, oh, o'tli kunlar.


O'zbek oyim, o'zgacha oyim,  
Gap boshlasa, qiyomat qoyim.  
Meni ta'qib qilar har doim  
O'tkan kunlar, oh, o'tli kunlar.

Siz o'shami, deganda Kumush  
Ishqin izhor aylagan emish.  
Chin muhabbat armon bo'p qolmish,  
O'tkan kunlar, oh, o'tli kunlar.

Xotiradir kunlar o'tgani,  
 Moziylardan so'zlab yotgani,  
 Qodiriyni xotir etgani,  
 O'tkan kunlar, oh, o'tli kunlar.

Hecib pir yigit kaw po'jmassiz.

Kumash tuzsiz usbagotisiz,



Savas tuzsiz usbagotisiz,

Yildizsiz usbagotisiz,

Hecib pir yigit kaw po'jmassiz.

Yav xatpis po'jmassa fassiz,

Ajal tonu dili esa passu,

O'liddiz, ilis passu,

Hecib pir yigit kaw po'jmassiz.

Habot, selli, sinap ko'tar,

Dard poschini sunap ko'tar,

Hsumassiga yigit ko'tar,

Hecib pir yigit kaw po'jmassiz.

Cjadimchitiz kerimya chitsip,

Gordan olib, go'lis so'lib,

Bn usbagouda usridiz g'olib,

Hecib pir yigit kaw po'jmassiz.

## KAM BO'LMASIN

Yigit boshi xam bo'lmasin,  
Kipriklari nam bo'lmasin.  
Hayot baxtlar bersin butun,  
Hech bir yigit kam bo'lmasin.

Kurash tushib maydonlarda,  
Savlat to'ksin ayvonlarda,  
Yiqilmasin armonlarda,  
Hech bir yigit kam bo'lmasin.


Yov zARBiga bo'lmay taslim,  
Ajal jonin qilmay hazm,  
Ot yiqilsa, itga bazm,  
Hech bir yigit kam bo'lmasin.

Hayot, balki, sinab ko'rар,  
Dard boshini sinab ko'rар,  
Hammasiga yigit ko'nar,  
Hech bir yigit kam bo'lmasin.

Chaqimchilar karnay chalib,  
Go'rdan olib, go'rga solib,  
Bu maydonda mardlar g'olib,  
Hech bir yigit kam bo'lmasin.

**Yahyo, butun saqla oring,  
Elymon doim bo'lsin yoring,  
Yaratgandan bitta zoring,  
Hech bir yigit kam bo'lmasin.**

Shoirlar she'r bitsa alam,  
Yig lab qidaq qidaq.  
Kuyga sojus sibasizsan.  
Jaranglagan - sibasizsan.



Yoshiliq davlatmas bahor derlar,  
Munapsat sev - sevayining ditsiz  
Keksalik gashan derlar,  
Bog'ini iclis oltibosusuz.



Osmonga ko'rkdir yulduzlar,  
Dunyoqa kim kimani izlar,  
Yigitlarni sevsan nizlar,  
Sevsin shunday beri balan.



## MUHABBAT

Muhabbat, sen vujudim uzra  
Tuyg'ularni saralagansan.  
Xayollarim to'zg'itib, so'ngra  
Yuragimni yaralagansan.

Avval ko'nglim oynasin chertib,  
Pardasidan mo'ralagansan.  
Bir go'zalga shaydolar etib,  
Yuragimni yaralagansan.

Muhabbat, sen – sevgining qushi,  
Bog'im ichra oralagansan.  
Yursam – hushim, uxlasmam – tushim,  
Yuragimni yaralagansan.

Hayot, balki, sinab ko'rар,  
Dard boshini sinab ko'rар,  
Hammasiga yigit ko'нar,  
Hech bir yigit kam bo'lmasin.

Chaqimchilar karnay chalib,  
Go'rдан olib, go'rga solib,  
Bu maydonda mardlar g'olib,  
Hech bir yigit kam bo'lmasin.

## BORI BILAN

Er yigitlar bu dunyoda  
Yashar nomus-ori bilan.  
Sevgi ahli shodon bunda  
Jondan sevgan yori bilan.

Shoirlar she'r bitsa alam,  
Yig'lab dardin aytar qalam.  
Kuyga solar hofizlar ham,  
Jaranglagan tori bilan.

Yoshlik qaytmas bahor derlar,  
Ters oqmaydi anhor derlar,  
Keksalik gashti bor derlar,  
Boshga qo'ngan qori bilan.

Osmonga ko'rkdir yulduzlar,  
Dunyoda kim kimni izlar,  
Yigitlarni sevsal qizlar,  
Sevsin shunday bori bilan.

## YOR-YOR

Men ko'nglimni ovutolmadim,  
Sevgim yig'lar armon ko'chada.  
Quloqlarim berkitolmadim  
Senga yor-yor aytgan kechada.

Nigohlarim sakragan ohu,  
Gohi zamin, goh ko'kka boqib.  
G'urur qo'ymas ichmoqqa og'u,  
Oshiq dilga orlanib boqib.

Chin muhabbat ketmaydi abad,  
Iltimosim, demagin unut.  
Aybdor bir o'zimman faqat,  
Demadim-a, bir yilgina kut.

Sevgim yig'lar armon ko'chada,  
Tomirlarda aylanar afsus.  
Biz uchrashgan toshloq ko'chada  
Nima deyman ko'rishganda yuz?

Yo'q, azizam, senda ham ayb bor,  
Eslaganda yuragim og'rir.  
Onajoning tergadi ko'p bor,  
Suyganim bor, demading - shoir!

## TOSHDAGI SADO

Sevdim desam tog'larga,  
Sado qaytar - qo'y deydi.  
Sevsang ham, sevmasang ham,  
Bir kun bo'lar to'y deydi.

Shoshma deydi, shoshma der,  
Bir kun yetar bo'y deydi.  
Yoshlikdagi muhabbat  
Shirin xayol, o'y deydi.

Hijronlarda qovrilsang,  
Xayollarga ovunsang,  
Orzularga topinsang,  
Yaxshilikka yo'y deydi.

Payg'ambarning sunnati,  
Kelar uylanish payti.  
Yaratganning ne'mati,  
Shu go'zalni suy deydi.

## MUHABBATNING BOG'IDA

Shodon edim sen bilan

O'sha yoshlik chog'ida.

Kutar edim gul bilan

Muhabbatning bog'ida.

Yodimdasan, gulbadan,

Yo'l qarayman damba-dam.

Baxtli edim hammadan

Muhabbatning bog'ida.

Umidlarim uzilgan,

Baxt devori buzilgan,

Suratlaring chizilgan

Muhabbatning bog'ida.

Sog'inaman kun sayin,

Armonlarim kuylayin,

Darddoshim yo'q sendayin

Muhabbatning bog'ida.

Dilni yoqib gulkanda,

Halovatim yo'q tanda.

Yosh edim-da o'shanda

Muhabbatning bog'ida.

Sevgiga gul tutaman,  
Qancha alam yutaman,  
Seni hamon kutaman  
Muhabbatning bog'ida.

Shabniga qiziqish  
Dard-siz-siz  
Qadning qiziqish

Oshin qiziqish  
Baxtli kuzum  
Ko'zli qiziqish  
Qadning qiziqish

Men hikayani  
Sizsiz, hingem  
Zor hingem  
Qadning qiziqish

Medley  
Hayot hattyur  
Sizni qiziqish  
Qadning qiziqish

## O'LSAM KERAK

Hijronlardan tondi yurak,  
Muhabbatdan yondi yurak,  
Seni jordan sevib qoldim,  
Shu ishq bilan o'lsam kerak.

Ko'ngilda ishq alangasi,  
Orzularning sho'x yallasi,  
Keldi visol, baxt pallasi,  
Shu ishq bilan o'lsam kerak.

Beqarorman, kecholmayman,  
Sendan olis ketolmayman,  
Balki, senga yetolmayman,  
Shu ishq bilan o'lsam kerak.

Endi men yosh emas, axir,  
Yuragim tosh emas, axir,  
Muhabbatdan kuydi bag'ir,  
Shu ishq bilan o'lsam kerak.

Gul vaslingga boqsam to'yib,  
Erkalasam suyib-suyib,  
Oyog'ingga boshim qo'yib,  
Shu ishq bilan o'lsam kerak.

## QADRDON

Umr – daryo, oqmoqda hamon,  
 Yillar o'tib, orzular armon,  
 Sog'inch dilga sanchganda xanjar  
 Qadringiz bilinar, qadrdon!

Shabnam titrar gul yanog'ida,  
 Sevgim yig'lar dil qarog'ida,  
 Dard-sitamlar ezgan chog'ida  
 Qadringiz bilinar, qadrdon!

Oshiq yurak rashkimdan zada,  
 Baxtli kunlar hamon yodimda,  
 Ko'zga uyqu kelmagan tunda  
 Qadringiz bilinar, qadrdon!

Men bilaman, xatoyim bisyor,  
 Sizsiz, hatto yashamoq bekor,  
 Zor ko'zlarim sog'indi diydor,  
 Qadringiz bilinar, qadrdon!

Mehr bilan baxtlidir inson,  
 Hayot ham bir berilgan imkon,  
 Sizni sevib yashayman hamon,  
 Qadringiz bilinar, qadrdon!

## EGILDIM

Devonaman ko'yingda,  
Aylandim-ku soyangga.  
Gadoday ostonangda  
Yiqildim.

Azoblar girdobida,  
Sog'inchlar firog'ida,  
Ko'zlarining qarog'ida  
Egildim.

Baland edim osmonday,  
Sarg'aydim-ku somonday,  
Yo'llaringda xazonday  
To'kildim.

Sevib senday zolimni,  
Xarob aylab holimni,  
O'tga solib dilimni  
Kul bo'ldim.

## MAKTUB

O'n yettida edi Asadbek,

Sevib qoldi qo'shni malakni.

Tunlar bedor to'lg'onar bo'ldi,

O'tga solib murg'ak yurakni.

Ko'ksi to'la titroq, hayajon,

Aytolmasdi sevgisin izhor.

O'z-o'ziga so'z berdi bir kun,

So'zlamoqni ayladi qaror.

Katta yo'lning boshiga chiqib,

Asad qizni kutib turardi.

Vujudini titroq egallab,

Yuragi ham tez-tez urardi.

Qiz mактабда o'qиди hали,

Nasib qilsа, shu yil bitirar.

Yo'l chetidan sallona yurib,

Sumkachasin o'ynatib kelar.

Qizni ko'rib sevindi oshiq,

Titroq so'nib jur'ati o'sdi.

Muhabbatin etmoqqa izhor,

Parivashning yo'llarin to'sdi.

– Gulira’no, tinglang, iltimos,  
Vaqtinuzni bir zum olaman.  
Gullar tutib so’z boshlar oshiq,  
– Sizni jordan-jordan sevaman.

Bir zum sukut saqlab qizgina  
Dedi: “Bunday so’zingiz bekor, –  
Yerga qarab hayajon bilan  
Past ovozda, – tanlaganim bor...”

Necha yillar o’tdi ketma-ket,  
Uning hamon qizdadir o’yi.  
Qulog’iga chalindi nogoh,  
Erta-indin go’zalning to’yi.

Go’zal kelin bo’ldi qo’shni qiz,  
To’y ham o’tdi, Asad yutqazdi.  
Bir kun qo’shni qiz dugonasi  
Asadbekka maktub tutqazdi.

Unda shunday so’zlar bitilgan,  
Bir varoqmi yoki oz edi:  
“Tanlaganim bor dedim sizga,  
Bilmadingiz, bari noz edi.

Yo’lim to’sib, sevdim, dedingiz,  
So’z boshlasam, jim demadingiz.

Sevganim siz edingiz asli,  
So'rmadingiz, kim demadingiz".

Xatni o'qib oshiq jimgina,

Entikdi-yu, yumdi ko'zini.

Beparvolik qilgani uchun

Kechirolmas endi o'zini.

Aslida, bu oddiy she'r edi,

Ishq bo'lmasa, ijod, qalam yo'q.

Qizlar sizga "yomonsiz" desa,

Biling, sizdan yaxshi odam yo'q.



\* \* \*

Men sevgidan vafo ko'rdim,  
Degan bitta ovoza yo'q.  
Ko'ray desam, bilay desam,  
Tinglay desam, andoza yo'q.

Fig'on chekib, ohlar urib,  
Yuraversam, yuraversam.  
Oshiq dilni nimta qilib,  
Yulaversam, yulaversam.  
Boshimizda qolib ketmas,  
O'lim degan omonat bor.  
Buncha yomon bu ishq dardi,  
Na bir sokin halovat bor.

Nedir tishlar, nedir chaqar,  
Ba'zan noxush, ba'zan yoqar.  
Sog'inchlari, azoblari  
Dunyo qadar, dunyo qadar.

Unda shunday so'zlar bitilgan,  
Bir varoqmi yoki oz edi:  
"Tanlaganim bor dedim sizga,  
Bilmadingiz, barl noz edi."

Yo'lim to'sib, sevdim, dedingiz,  
So'z boshlasam, jim demadingiz.

## KO'N SOG'INCH NGDA

Yillar otin qamchilab borar,  
O'tgan umr-onlarim, esiz.  
Sog'inch hissi ko'ksimni yorar,  
Bu sog'inchlar cheksizdir, cheksiz...

Osmonlardan-osmon firoqlar,  
Zamindan zil-zambil ayriliq.  
Bunchalar zor, giryon qaroqlar,  
Sog'inish ham ko'ngilga bog'liq.

Katta yo'lning boshida qolgan  
Singillarim ko'zida sog'inch.  
"Yetganda telefon qil" degan  
Akalarim so'zida sog'inch.

Sog'inch Boysun, Toshkentga qadar  
Xotiralar qoldirmoqda iz.  
Men qishloqni qo'msab yashayman,  
Bu sog'inchlar cheksizdir, cheksiz!..

Ko'nglim, ko'ngling qarshilar,  
Ko'p bo'lsa ham qarshilar,  
Rostin aytdim o'zingga.  
Ko'ngil, ko'ngil o'zingda.


\*\*\*

Yuz yil yashashimiz kerak, shubhasiz,  
Qayta uchrashmoqlik umidida biz...  
Qayta ko'rishmoqlik dargumon, ammo  
Qaytaverar bizni uchrashhtirgan kuz.

Yaproqlar to'kilar, oltin yaproqlar,  
Bizning baxtimizning zar tumorlari...  
Shitirlab nelarni so'zlamoq bo'lar,  
Balki, oshiq dilning ko'ngil zorlari.

Yuz yil yashashimiz kerak, shubhasiz,  
Qayta uchrashmoqlik umidida biz!..

Nedir fidan, nedir chagar,



Sog'iuchi boyasiga dashti,

Ba zangi, qizg'ini, qizg'ini,

Xotilastir dolduruvodis is,

Sog'iuchi boyasiga dashti,

Men disiboldi do'msap asbyzamru,

Jibek qurunti, jibek qurund,

Bu sog'iuchi chekisadi, chekisadi..

## KO'NGLIM O'ZINGDA

Ko'ksida qon yurgandir,  
Oshiqlaring izingda.  
Nozlariningni qo'yib tur,  
Ko'ngil, ko'ngil o'zingda.

She'rga solib hasratim,  
So'zlamoqchiman dardim,  
Kulgichlari go'zalim,  
Ko'ngil, ko'ngil o'zingda.

Tunlarimni to'ldirgin,  
Kunlarimni kuldirgin,  
Boqishing-la bildirgin,  
Ko'ngil, ko'ngil o'zingda.

Beparvo o'tma endi,  
Bilinmas, o't na endi,  
So'zlarining yutma endi,  
Ko'ngil, ko'ngil o'zingda.

Ko'nglim, ko'ngling qarshilar,  
Ko'p bo'lsa ham qarshilar,  
Rostin aytdim o'zingga,  
Ko'ngil, ko'ngil o'zingda.

**ASR SEVGISI**

Sevaman deb takror aytaman, mayli,  
Bu so'zim aslida yurakning mayli.  
Ishqimiz o'zgacha ta'rifi bo'lak,  
Men Majnun emasman, siz emas Layli.

Xat yozmoq urf emas sms bor-ku,  
Kun osha xiyobon muhabbat sayli.  
Bu asr sevgisi topganimiz shu,  
Men Majnun emasman, siz emas Layli.

Yarim tun telefon tushmas qulqoqdan,  
Ko'zlarda uyqu yo'q, xayollar daydi.  
Bo'shamay ko'zgudan, sochlar taroqdan,  
Men Majnun emasman, siz emas Layli.

Gohida xafaman o'zimdan-o'zim,  
Naqadar kulguli shoirning bayti.  
Biz kimni aldadik, ayting, yulduzim?  
Men Majnun emasman, siz emas Layli.

Sevgimiz sarobmi, hechmikan yo kech,  
Siz boshqa, biz boshqa sevamiz, mayli.  
Lek aslo ulardek bo'lolmaymiz hech,  
Men Majnun emasman, siz emas Layli.

\* \* \*

Men ham bir muhabbat dallisi,  
Jismimda jon halak, soyaman.  
Bo'lsa gar ishqning chin Laylisi,  
Sevishni o'rgatib qo'yaman.

O'rgatib qo'yaman Farhodga,  
Ayting-chi, bormikan Shirinlar?!  
Shoir bo'b solmasdim bayotga,  
Yo'q bo'lsa ishq degan gurunglar.

## **ANGLASH**

Sey Orzularning yo'llari bisyor,  
Yetolmayman hech adog'iga.  
Alishmayman butun dunyoni  
Otamning bir qo'l qadog'iga.

Bu hayotning baland-pastini  
Otajonim mardona kezgan.  
Shum umrning g'am-anduhlari  
Yuzlariga xarita chizgan.

Faqat dardim aytdim kuyinib,  
Tonglar otdi orqasidan kech.  
Otam, balki, aytolmagandir,  
Dardlarini so'ramabman hech.

Beeparvolik, balki, yoshlikdir,  
Goh mehrni qilganman kanda.  
Otam bilan yonma-yon turib  
Suratga ham tushmaganman-da.


Endi o'zni koyiyver, Yahyo,  
Kech bo'lgani hammaga ayon.  
Asli shunday o'tkinchi dunyo,  
Otang ketdi qadding qib kamon.

Ko'zyoshlaring tinsa-tinmasa,

Rostdir seni tashlab ketgani.

Dardlaringni qog'ozga to'kkil,

She'r yozishdir kuching yetgani.



Ne-ne suro'bi, qiziqi ilgum bol o'siz sioxis,

Kimlardir oh qiziqi ilgum bol o'siz sioxis,

Eng olly hakam, qiziqi ilgum bol o'siz sioxis,

Adolat, adolat, yana adolat.

O'laysimdu o'sims doyp, sungap sochisisti,

Quyidagi turman dashsa ketar targan,

Ezgulik in qurba qayd qoldosi qolishi,

Qiziqidirning pax govalari qayd qolishi,

Shu qayd qolishi qayd qolishi,

Adolat, adolat, yana adolat.

Mudom, qayd qolishi qayd qolishi,

Na-da giyot, kerak, qayd qolishi,

Zavtochi qayd qolishi, amal qayd qolishi,

Bitta tirkak qayd qolishi, qayd qolishi,

Adolat, adolat, yana adolat.

So'zlarim ro'yomas, emasdi hava

Va yana o'ylamang birembo qo'xat.

Elning mardlari bor tsobad o'lmas,

Adolat, adolat, yana adolat.

Eshitdim, Surxonda gullabdi o'rik,  
Tongdagi yellar ham iforli emish.  
Shuurimda yashnagan xayolim ko'hlik,  
Men esa Toshkentda tortaman xomush.

Sog'inchni ilgum bor o'rik shoxiga,  
She'r aytib alqasam boboqirlarni.  
Yetti yuz chaqirim olisdan turib,  
Quchoqqa sig'diray keng adirlarni.

O'ylayman o'sma qosh, sunbul sochlarni,  
Maysadek jonlanar eski xotira.  
Qishloqning bug'doyrang sodda dillari,  
Zulayho, Nargiza, Gulyuz, Nodira...

Eshitdim, Surxonda gullabdi o'rik,  
Qalbimda nish urar tuyg'ular ilkis.  
Zalvorli firoqlar yuragimga yuk,  
Sog'inchlar cheksizdir, cheksizdir, cheksiz...

Endi o'zni koyiyver, Yahyo,  
Kech bo'lgani hammaga ayon.  
Asli shunday o'tkinchi dunyo,  
Otang ketdi qadding qib kamon.

## ADOLAT

Dunyoda bir so'z bor haqning qarori  
 Va anga tobedir jamiki millat.  
 Haqiqat jamoli, hurlik sharori,  
 Adolat, adolat, yana adolat.

Ne-ne sinovi bor ko'hna dunyoning,  
 Kimlardir oh chekdi, kim qildi toqat.  
 Eng oliv hakami degum vijdonning,  
 Adolat, adolat, yana adolat.

Quyuq tuman tushsa ketar tarqalib,  
 Ezgulik in qursa abad farog'at.  
 Shu so'z-la turgisi keng jahon qalqib,  
 Adolat, adolat, yana adolat.

Mudom ko'ngillarni zabit etmoq kerak,  
 Na-da giyoh kerak, na-da tabobat.  
 Bitta tirkak kerak, haqiqiy tirkak,  
 Adolat, adolat, yana adolat.

So'zlarim ro'yomas, emasdir havas  
 Va yana o'ylamang birovga oq xat.  
 Elning mardlari bor toabad o'lmas,  
 Adolat, adolat, yana adolat.

## MUNDARIJA

<b>Rustam Musurmon.</b>	<b>Tonggi maktub.....</b>	3
Ona diyorim.....	5	
Adiblar xiyoboni.....	7	
Yomg'ir.....	9	
Boysun.....	10	
"Ilhom berar qishloqning hatto..."	11	
Bolalik.....	12	
Pog'ona.....	13	
Kechirgin, ona.....	14	
Jannat istasam.....	16	
Ota.....	17	
"Dil g'ashlanar, ko'zda yosh qalqir..."	18	
Cho'ponning uyi.....	19	
Bilmabman.....	20	
Bekor-da.....	21	
Shirin tuyg'u.....	22	
Sog'inib yashayman.....	23	
Qishlog'im.....	24	
"Tor ko'ksimning dil lavhiga..."	25	
Bolalikni eslab.....	26	
She'riyat.....	27	
O'tkan kunlar.....	28	
Kam bo'lmasin.....	30	
Muhabbat.....	32	
Bori bilan.....	33	
Yor-yor.....	34	
Toshdag'i sado.....	35	

Muhabbatning bog'ida.....	36
O'lSAM kerak.....	38
Qadrdon.....	39
Egildim.....	40
Maktub.....	41
"Men sevgidan vafo ko'rdim..." .....	44
Sog'inch.....	45
"Yuz yil yashashimiz kerak, shubhasiz..." .....	46
Ko'nglim o'zingda.....	47
Asr sevgisi.....	48
"Men ham bir muhabbat dallisi..." .....	49
Anglash.....	50
"Eshitdim, Surxonda gullabdi o'rik..." .....	52
Adolat.....	53

**UO'K: 821.512.133-1(081)**

**KBK: 83.3(50'zb)**

**F 14**

**F 14 Fayoz, Yahyoxon.**

Baxtimizning zar tumorlari [matn]: *she'rlar/*

– Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. – 56 b.

*Adabiy-badiiy nashr*

**Yahyoxon FAYOZ**

## **BAXTIMIZNING ZAR TUMORLARI**

*She'rlar*

Muharrir: *D. Mingboyeva*

Badiiy muharrir: *F. Ermatov*

Sahifalovchi: *N. Soatov*

Musahhih: *Sh. Hakimova*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

⌚ (98) 128-30-04. e-mail: mashkhur-press@mail.ru

Bosishga 20.11.2020-yilda ruxsat etildi:

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90  $\frac{1}{32}$ .

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 1,25.

Adadi: 10000 nusxa. Buyurtma №341.

"AZMIR NASHR PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.





Yahyo Fayoz (Yahyoxon Fayozov) 1988-yil 23-noyabrdan Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida tug'ilgan. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutini tamomlagan. 2017-yilda Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminari ishtirokchisi.

YAHYO FAYOZ

BAXTIMIZNING ZAR TUMORLARI

**"ADABIYOT"**  
NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-647

9 789943 6472